**Аннотация:** В данной статье проведен эконометрический анализ факторов, влияющих на развитие туризма в Узбекистане, а также проверены годовые статистические данные последних лет путем построения уравнений регрессии на основе метода наименьших квадратов.

**Ключевые слова:** туризм, персонал, регрессия, факторы, туристы, гости из-за границы.

## KIRISH

Jahon amaliyotida turizm va ta'lim xizmatlari bozorining yetakchi ishtirokchilari hisoblangan oliy ta'lim muassasalarining mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilishini samarali boshqarishda bir qator muammolarning ilmiy yechimlarini ta'minlash yuzasidan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etilgan. Zamonaviy industrial dunyoga qo'shilishga intilish jadal o'zgarib borayotgan mehnat bozori ehtiyojlariga tez moslashishga qodir rakobatbardosh kadrlarni yetishtirish, o'z navbatida, oliy ta'lim tizimiga innovatsiyalarni kiritishni talab qilmokda. Globallashuv sharoitida mamlakatimizning kelajagini tashabbuskor, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun xam mamlakatimizda ta'limning barcha bug'inlari rivojiga aloxida urg'u berilib kelinmokda.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini boshqarishni jadal rivojlantirishga yuqori darajada e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim va o'qitish sifa-



tini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish" bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning muvoffaqiyatli ijrosi turizm sohasida kadrlarni tayyorlashning metodologik asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019 yildagi "Turizm" to'g'risidagi O'RQ-549-son<sup>1</sup> Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son<sup>2</sup> va "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son<sup>3</sup> Qonunlari va 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son<sup>4</sup>, 2018-yil

5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son<sup>5</sup> qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar talablarini amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmدا kadrlarni boshqarishning nazariy asoslari xorijlik olimlardan A. Asher [1], R. Barro [2], D. Duglas [3], E.C. Andrade [4], E. Hanushek [5], A. Maddison, G. Philip [6], L. Pritchett [7] va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

MDH davlatlari olimlaridan Ye.O. Akvazba [8], Ye.V. Balatskiy [9], N.N. Bedenko [10], K.N. Gojenko [11], A.X. Jankaziyev [12], A.P. Kolyadin [13], L. Polishuk [14], A.K. Savina [15], V.I. Suxochev [16] va boshqalarning ilmiy maqolalari, monografiya va dissertatsiyalarida o'rganilgan hamda tahlil qilinib, tegishli tavsiyalar berilgan.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan G.N. Axunova [17], B.A. Begalov [18], A.Sh. Bekmurodov [19], S.S. Gulyamov [20], Sh.N. Zaynutdinov [21], M.A. Ikramov [22], D.S. Kasimova [23], D.N. Raximova [24], R.A. Raxmanbayeva [25], M.X. Saidov [26], Ochilov A.O. [27], A.T. Yusupov [28], N.O. Qayumova [29], Sh. Qurbonov [30], Q.Q. Qurollov, N.G. Zufarova, X. Umarova va boshqalarning ilmiy asarlaridagi metodologik jihatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida shu xulosaga kelindiki, hozirga qadar aynan turizmда kadrlarni tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlari to'liq yoritilmagan. Shunga ko'ra, mazkur masalalar yuzasidan bir qator ilmiy, uslubiy va amaliy muammolarning hal etilish zarurati mavjud.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilidan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va jadvallar yordamida tahlil ishlari olib borilgan, undagi natijalar asosida aniq xulosa va amaliy takliflar bayon qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Eng yangi ensiklopediyadan olingan ta'rifga ko'ra, "kadrlar ta'minoti" bu kompaniyaning o'zida, xizmat pog'onalari sari ilgari surish hamda uning tashqarisida vaqtinchalik yoki doimiy ishlovchi xodimlarni yollash uchun ishchi kuchini izlash, baholash va u bilan munosabatlarni oldindan o'rnatishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Mehnat shartnomalari muddati tugashi yoki kompaniyaning talablariga nomuvofiqlik holatida kadrlar ta'minotining vazifasi ishdan ozod qilishni nazarda tutadi.[31]

Ushbu maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ekzogen omillarning ta'siri tadqiqi amalga oshirilib, axborot bazasi sifatida 2016–2022-yillarda yillik ko'rsatkichlar (vaqtli qatorlar) [www.stat.uz](http://www.stat.uz) saytidagi ma'lumot olingan.

1-rasmda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy va sayohatlari amalga oshirilgan mahalliy sayyohlar soni (ming nafar) quyidagi diagrammada keltirilgan.


1 <https://lex.uz/docs/4428097>

2 <https://lex.uz/docs/5013007>

3 <https://lex.uz/docs/3026246>

4 <https://lex.uz/docs/3286194>

5 <https://lex.uz/ru/docs/3765586>



**1-rasm.** O'zbekiston Respublikasiga 2018–2022-yillarda tashrif buyurgan xorijiy va sayohatlarning yosh bo'yicha taqsimlanishi (ming nafar).

Mustaqil had va o'zgaruvchilar qo'yidagi belgilanish asosida olindi:

| Xorijiy turistlar<br>(ming nafar)                                                                   | 0 dan 18<br>yoshgacha                   | 19 dan 30<br>yoshgacha                           | 31 dan 55<br>yoshgacha                           | 55<br>yoshdan<br>oshgan | Ichki<br>turistlar<br>(ming nafar)    | Aholining mobil aloqa bilan<br>ta'minlanganligi (100 ta<br>doimiy aholiga, jismoniy<br>shaxslar) |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|--------------------------------------------------|--------------------------------------------------|-------------------------|---------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|
| y                                                                                                   | y1                                      | y2                                               | y3                                               | y4                      | y5                                    | x1                                                                                               |
| Aholining<br>internet bilan<br>ta'minlanganligi<br>(100 ta doimiy<br>aholiga, jismoniy<br>shaxslar) | Tashilgan<br>yo'lovchilar,<br>mln.kishi | Yo'lovchi<br>aylanmasi,<br>mlrd.<br>yo'lovchi-km | Elektron tijorat savdo<br>aylanmasi (mlrd. so'm) |                         | Talabalar<br>soni,<br>ming<br>nafarda | Xizmatlar sohasida talabalar<br>soni, ming nafarda                                               |
| x2                                                                                                  | x3                                      | x4                                               | x5                                               |                         | x6                                    | x7                                                                                               |

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilini davrda (2016–2022-yillarda) yillik statistik ma'lumotlarini tahlil qildik.

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistikasi qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

O'chlov birliklari turlicha bo'lganligi sababli biz barcha omillarni logariflab oldik.

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistikasi qo'yidagi jadvalda aks ettirilgan.

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya matritsasi tuzildi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, natijaviy omil ( $y, y_1, y_2, y_3, y_4, y_5$ ) va unga ta'sir etuvchi omillar ( $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6, x_7$ ) o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi.



## 2-jadval. O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning tasviriy statistikasi.

| Variable | Obs | Mean     | Std. Dev. | Min      | Max      |
|----------|-----|----------|-----------|----------|----------|
| y        | 8   | 8.158131 | .6366617  | 7.315884 | 8.934192 |
| y1       | 8   | 5.86881  | .7081407  | 4.94876  | 6.833032 |
| y2       | 8   | 6.46783  | .6156734  | 5.655992 | 7.182352 |
| y3       | 8   | 7.496274 | .6373175  | 6.669498 | 8.273082 |
| y4       | 8   | 6.533422 | .6572305  | 5.669881 | 7.340187 |
| y5       | 8   | 9.107462 | .4681429  | 8.170186 | 9.598863 |
| x1       | 8   | 4.256115 | .0690092  | 4.17389  | 4.368181 |
| x2       | 8   | 3.902579 | .3684611  | 3.370738 | 4.399375 |
| x3       | 8   | 8.686155 | .072048   | 8.574687 | 8.807472 |
| x4       | 8   | 4.912076 | .0896882  | 4.773224 | 5.062595 |
| x5       | 8   | 6.01509  | 3.09933   | 1.797264 | 9.598727 |
| x6       | 8   | 6.259923 | .5230839  | 5.592106 | 6.904751 |
| x7       | 8   | 3.106824 | .5553002  | 2.415914 | 3.747148 |

Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omilning va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida zich bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, ya'ni xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari qiymati aksariyati 0,7 dan katta.

Bu yerda asosiy masala ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi shartidir. Ya'ni ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud bo'lmazligi lozim bo'lib, ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, multikolleniarlik mavjud hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy barqarorligiga ayrim omillar (X) va natijaviy omillar (U) ning kombinatsiyalarini alohida-alohida ko'rib chiqish zarur bo'lib, ularning ichidan adekvatlari tanlab olinadi.

Statistikaning nazariy talabi bo'yicha barcha ta'sir etuvchi omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyentlariga qiymatlari 0,5 dan kichik bo'lish talab etiladi hamda bu ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud emasligidan dalolat beradi.

## 3-jadval. O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning regression modeli.

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 8      |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model    | 2.58629985 | 3  | .862099948 | F(3, 4)       | = | 13.73  |
| Residual | .251067248 | 4  | .062766812 | Prob > F      | = | 0.0142 |
|          |            |    |            | R-squared     | = | 0.9115 |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | 0.8451 |
| Total    | 2.83736709 | 7  | .405338156 | Root MSE      | = | .25053 |

| y     | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| x4    | 6.55496   | 1.347956  | 4.86  | 0.008 | 2.812436 10.29748    |
| x5    | .9655749  | .4009327  | 2.41  | 0.074 | -.1475928 2.078743   |
| x7    | -5.732873 | 2.205474  | -2.60 | 0.060 | -11.85625 .3905027   |
| _cons | -12.03732 | 8.673667  | -1.39 | 0.238 | -36.11928 12.04464   |

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ko'p omilli ekonometrik modelning eng kichik kvadratlar usuli asosida hisoblangan parametrlari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

(1) modelning avtokorrelyatsiyaga tekshirishda, Breush-Godfri testi o'tkaziladi.

Agar qo'shni kuzatuvlarda korrelyatsiya mavjud bo'lsa, ushbu tenglamada  $e_t = \rho * e_{t-1} + v_t$ ,  $t = 1, \dots, n$

(bu yerda yet – eng kichik kvadratlar usuli orqali olingan regressiya qoldiqlari) n koeffitsiyenti noldan farqli bo'ladi.



Modelning avtokorrelatsiyaga Breush-Godfri testi orqali tekshiruvi natijalari ushbu jadvalda keltirilgan (5-jadval).

O'zbekiston Respublikasida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarning geteroskedatistiklik testi 5-jadvalda keltirilgan.


4-jadval. O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning regression modeli.

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 8       |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|---------|
| Model    | .002891967 | 2  | .001445984 | F(2, 5)       | = | 0.96    |
| Residual | .007516744 | 5  | .001503349 | Prob > F      | = | 0.4432  |
|          |            |    |            | R-squared     | = | 0.2778  |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | -0.0110 |
| Total    | .010408712 | 7  | .001486959 | Root MSE      | = | .03877  |

| e2    | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |          |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|----------|
| x3    | 2.853351  | 2.072264  | 1.38  | 0.227 | -2.473572            | 8.180275 |
| x4    | -2.25385  | 1.664683  | -1.35 | 0.234 | -6.533054            | 2.025354 |
| _cons | -13.68219 | 9.895055  | -1.38 | 0.225 | -39.11823            | 11.75386 |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rib turibmizki, bu yerda geteroskedatistiklik muammosi yuk – model adekvat hisoblanadi.



2-rasm. O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning regressiya modelidagi qoldiqlar.

Skewness/Kurtosis tests for Normality

| Variable | Obs | Pr(Skewness) | Pr(Kurtosis) | adj chi2(2) | Prob>chi2 |
|----------|-----|--------------|--------------|-------------|-----------|
| ehat     | 8   | 0.1313       | 0.1584       | 4.37        | 0.1127    |

```
. hist ehat, norm
(bin=2, start=-.03563202, width=.04738387)
```

**5-jadval. O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning geteroskedastiklik Uayt testi.**

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 8      |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model    | .004592906 | 2  | .002296453 | F(2, 5)       | = | 1.97   |
| Residual | .005815806 | 5  | .001163161 | Prob > F      | = | 0.2334 |
|          |            |    |            | R-squared     | = | 0.4413 |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | 0.2178 |
| Total    | .010408712 | 7  | .001486959 | Root MSE      | = | .03411 |

| e2    | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| yhat  | 1.201892  | .6376576  | 1.88  | 0.118 | -.4372585 2.841043   |
| yhat2 | -.0748665 | .0393054  | -1.90 | 0.115 | -.1759042 .0261711   |
| _cons | -4.766861 | 2.576381  | -1.85 | 0.124 | -11.38966 1.855937   |

**TAHLIL VA NATIJALAR**

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning turli variatsiyalar asosida statistik jihatdan ahamiyatlarini tanlab olib regression tenglama tuzamiz.

$$Y = 6,55X_4 + 0,96X_5 - 5,73X_7 - 12,03$$

$$Y = 2,85X_3 - 2,25X_6 - 13,68$$

$$Y = 1,4X_5 + 10,36X_6 - 17,31X_7 - 11,38$$

$$Y_1 = 1,2X_5 + 10,51X_6 - 15,92X_7 - 17,72$$

$$Y_2 = -0,12 X_2 + 15,7 X_6 + 125,69$$

$$Y_2 = 5,99 X_4 + 3,89 X_2 - 3,04 X_7 - 28,72$$

Ekonometrik tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ichida qisqa davrda (2016–2022-yillarda) yillik statistik ma'lumotlari tahlil qilinganda, 31 dan 55 yoshgacha bo'lgan xorijiy turistlar aholining internet bilan ta'minlanganligi (100 ta doimiy aholiga, jismoniy shaxslar), tashilgan yo'lovchilar, yo'lovchi aylanmasi, elektron tijorat savdo aylanmasi, talabalar soni hamda xizmatlar sohasida talabalar soni o'rtasidagi bog'lanishlar statistik ahamiyatli emas.

Ko'p omilli ekonometrik modellarning statistik jihatdan ahamiyatligini tekshirishda Fisherning F-mezoni qo'llaniladi. Fisherning hisoblangan F -mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar  $F_{hisob} > F_{jadval}$  bo'lsa, u holda ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko'rsatkichini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi.

Boshqa omillar o'zarmagan sharoitda mamlakatimizda yo'lovchi aylanmasini 1 foizga oshishi xorijiy turistlarning 6.55 foizga oshishiga xizmat qilarkan, elektron tijorat savdo hajmini 1 foizga oshishi xorijiy turistlarning 0.96 foizga oshishiga, talabalar sonining 1 foizga oshishi xorijiy turistlarning 10.51 foizga oshishiga, tashilgan yo'lovchilar sonining 1 foizga oshishi xorijiy turistlarning 2.85 foizga oshishiga olib kelishi aniqlandi. Biroq, talabalar soni hamda xizmatlar sohasida talabalar soni bilan xorijiy turistlar sonini ortishi o'rtasida teskari korrelyatsion aloqa mavjudligi aniqlandi. Bu esa qo'shimcha tadqiqotlar olib borilishini ko'rsatadi hamda tadqiqotning cheklanganligini ifoda etadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shunday qilib, olib borilgan nazariy tadqiqotlarga ko'ra biz raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirish uchun "kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish", ya'ni turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini boshqarishning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, munosabatlarni ratsionalizatsiya qilish kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi unga davlat, jamiyat (tarmoqdagi korxona va tashkilotlar) va talabalar tomonidan qo'yiladigan talablarga javob berishi kerak (3.2-rasm).

Davlat (makromuhit) turizm sohasi uchun samarali iqtisodiyotni shakllantirishda turizmning rolini oshirish jarayonida davlat vazifalarini samarali hal qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir bo'lgan uzluksiz kasbiy tayyorgarlik tizimini yaratishdan manfaatdor.

Jamiyat (makromuhit) mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, mas'uliyatli, o'z kasbini puxta egallagan va yo'naltirilgan malakali mutaxassislarni yetishtirish, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan, o'z mutaxassisligi bo'yicha



jahon standartlari darajasida samarali ishlashga qodir, tegishli faoliyat sohalarida tayyor, doimiy kasbiy o'sish, ijtimoiy va professional harakatchanlikka ega bo'lishidan manfaatdordir. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimining mazmuni jamiyat va ishlab chiqarishni rivojlantirish muammolarini faol aks ettirishga qaratilishi kerak, ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy amaliyotning boshqa sohalar va kasbiy tayyorgarlikning uzluksizligi va ko'p qirraliligini nazarda tutadi, buning asosi turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlashni fundamentallashtirish, uning nazariy va uslubiy tarkibiy qismiga e'tiborni kuchaytiradi.

Talabalar (mikromuhit) kasbiy tayyorgarlikni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish g'oyalarini amaliy hayotga tatbiq etishdan, shaxsning ijodiy salohiyatini maksimal darajada ochish uchun sharoit yaratishdan, kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishdan manfaatdordir. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi shaxsning bilimni kengaytirish, tajribani boyitish, kognitiv, amaliy va ijtimoiy-madaniy faoliyat usullarini egallashi uchun obyektiv shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi. Bu uning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- 1) turizm sohasining yagona intellektual muhitini shakllantirish zarurati;
- 2) o'qitishning barcha ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog'lanishini ta'minlash;
- 3) intellektual va ijodiy salohiyatni oshirish; ta'lim muassasalarining boshqaruv komponenti.

Modernizatsiya natijasida turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi quyidagi talablarga javob bersa, samarali ishlaydi.

- harakatlar ro'yxatining to'liqligi (qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur va yetarli);
- alohida elementlarning yaxlitligi, muvofiqlashtirish va bir-biriga moslash zarur. Bu esa aholi va mehnat bozorining kasb-hunar ta'limi bo'yicha ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabini uzviy bog'lovchi yaxlit tizim sifatida faoliyat yuritish imkonini beradi, ta'lim muassasalari tarmog'i orqali kadrlar tayyorlashni tashkil etadi, buning uchun quyidagi talablarni bo'lishi lozim;

- barcha resurslarning balansi (moliyaviy, o'quv-uslubiy, kadrlar, ilmiy, moddiy-texnika va boshqalar);
- nazorat qilish qobiliyati (operativ tomonidan oraliq maqsadlar belgilanadi);
- muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan sezgirlik (haqiqiy vaziyatning belgilangan maqsadlarga erishish uchun xavf tug'diradigan mo'ljallanganidan og'ishlarini tezda aniqlash qobiliyati bilan belgilanadi);

- o'qitish darajalari, bosqichlari va modullarining uzluksizligi (shaxs tanlagan kasbiy faoliyat sohasi doirasida);

- demokratik tamoyillar asosida kadrlar tayyorlash jarayonining ochiqligi, ta'limning har bir darajasidan foydalanish imkoniyati, talabalar va o'qituvchilarning akademik harakatchanligi, turli darajadagi ta'limning akademik uzluksizligi;

- uzluksiz kasbiy ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik, uning ko'p tomonlama integratsiya aloqalarini ta'minlash, unga qo'shilish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Kadrlar tayyorlash tizimini samarali rivojlantirish iqtisodiy-geografik, hududiy, tabiiy-iqlim, demografik, ijtimoiy-madaniy va boshqa omillarni, shuningdek, turizm sohasining mavjud infratuzilmasini hisobga olishni nazarda tutadi. Turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish kerak va turli resurslarni hisobga olgan holda rivojlantirish, shuningdek, mamlakat va mintaqada turizmni rivojlantirish dasturlarini ham hisobga oladi. Shu bois davlat ta'lim standartlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, hududiy resurslarni hisobga olgan holda yangi mutaxassislik va mutaxassisliklarni yaratish zarur.

Shuningdek, amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2016–2022-yillardagi panel ma'lumoti asosida eng kichik kvadratlar usulida olingan ekonometrik model unchali ishonchli emas, keyingi tadqiqotlarda Fixed, Random hamda Housman modellarini qurib statistik ahamiyatligini testlar yordamida tekshirish lozimdir. Ushbu tadqiqotning cheklanganligi faqatgina eng kichik kvadratlar usulidan foydalanilganligi bo'lib, keyingi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ашер А., Савино М. Глобальные рейтинги и рейтинговые таблицы // Вопросы образования. – 2007. – 4. – С. 201–216;
2. Barro R., 1999. "Human Capital and Growth in Cross Country Regressions", Swedish Economic Policy Review, Vol.6, pp.237–77.
3. Дуглас Д. Новый мировой порядок в высшем образовании: как и почему правительства создают структурированные рынки возможностей // Вопросы образования. – 2011. – 1. – С.73–98.
4. E.C. Andrade, Laurin M., 2010. "New evidence on the role of cognitive skills in Economic Development", Economics Letters, Vol.117 (1), pp.123–26.
5. Hanushek E., Kimko D., 2000. "Schooling, Labor-force quality, and the growth of nations", American Economic Review, Vol.90(5), pp.1184–208.
6. Philip G. Altbach, Liz Reisberg, Laura E. Rumbley (2009). Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. A report prepared for the UNESCO 2009. World Conference on Higher Education. – p. 10;



7. Pritchett L., 1996. "Where Has All the Education Gone?", World Bank Policy Research Paper, No.1581 [online] Available from: <[http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/unpan/unpan\\_002390.pdf](http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/unpan/unpan_002390.pdf)>
8. Аквазба Е.О., Ухабина Т.Е., Черемисина Е.В. Качество образования в современной образовательной организации: проблемы и перспективы // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – 5. URL: [www.science-education.ru / 128-21477](http://www.science-education.ru/128-21477) (дата обращения: 28.08.2015).
9. Балацкий Е.В., Екимова Н.А. Международные рейтинги университетов: практика составления и использования // Экономика образования. – 2012. – 2. – С. 67–80.
10. Беденко Н.Н. Управление системой оценки качества услуг высшего образования на мезо- и микроуровнях. Дисс. ... д-ра эконом. наук. – Санкт-Петербург, 2012. – 404 с.
11. Гоженко К.Н. Экономика знания – императивная основа инновационной трансформации сферы образовательных услуг. Автореф. дисс. ... д-ра эконом. наук. – Кисловодск, 2012. – 38 с.
12. Жанказиев А.Х. Императивы и организационно-экономические инструменты адаптации системы высшего образования к вызовам экономики знаний. Дисс. ... д-ра эконом. наук. – Нальчик, 2012. – 382 с.
13. Колядин А.П. Фиктивный компонент человеческого капитала как системный феномен экономики знаний. Автореф. дисс. ... д-ра эконом. наук. – Саратов, 2012. – 30 с.
14. Полищук Л., Ливни Э. Качество высшего образования в России: роль конкуренции и рынка труда // Вопросы образования. – 2005. – 1. – С. 70–86.
15. Савина А.К. Ученые степени и звания в зарубежных странах: общее и особенное // Проблемы современного образования. – 2015. – 3. – С. 10-23.
16. Сухочев В.И. Методология формирования организационно-экономического механизма оценки доступности и качества высшего образования. Дисс. ... д-ра эконом. наук. – Уфа, 2011. – 404 с.
17. Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари: Монография. – Т., 2005. – 244 б.
18. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Высшие учебные заведения в формировании национальной инновационной системы страны // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2012. – 4.
19. Бекмуродов А.Ш. Интерактивное обучение и информатизация образования – важнейшее условие для выпуска профессиональных и компетентных кадров // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2011. – 1.
20. Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Т., 2004. – 170 с.
21. Зайнутдинов Ш.Н., Очилов А.О. Олий таълим муассасаларини бошқариш самарадорлигини баҳолаш // Иқтисодиёт ва таълим. – 2010. – 2. – 83-87-б.
22. Икрамов М.А. Проблемы становления рынка образовательных услуг в Республики Узбекистан // Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития. Материалы международной научно-практической конференции. – Т., ТГЭУ, 2018. – 3. – С.167–171.
23. Касымова Д. Пути взаимодействия субъектов рынка труда: работник–работодатель // Иқтисодиёт ва таълим. – 2011. – 6. – С. 22–25.
24. Рахимова Д.Н. Управление процессами развития и использования трудового потенциала Узбекистана в условиях осуществления радикальных рыночных реформ. – Т., 2000. – 225 с.
25. Рахманбаева Р.А. Управление интеллектуальным потенциалом вузов в условиях интеграции образования и производства. Автореф. дисс. ... д-ра эконом. наук. – Т., 2012. – 50 с.
26. Саидов М.Х., Исманов М.А. Менеджмент и инновации современного профессионального образования. – Т., 2002. – 79 с.
27. Очилов А.О., Самадов А.Н. Модель управления трудоустройством выпускников высших образовательных учреждений в Узбекистане // "Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития". Материалы международной научно-практической конференции. – Т., ТГЭУ, 2018. – 3. – С. 276–283.
28. Юсупов А.Т. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар давлат аттестацияси: методологик-услубий, норматив-ҳуқуқий ва илмий-ташкилий йўналишлари / А.Т. Юсупов. – Т., 2013. – 648 б.
29. Қаюмова Н.О. Ўзбекистонда иқтисодий ривожланишнинг янги сифат босқичи жараёнларини эконометрик тадқиқоти. Иқт. фанл. докт. ... дисс. – Т., 2012. – 317 б. ил.
30. Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. – Т., 2006. – 592 б.
31. Қуролов Қ.Қ. Бозор муносабатлари шароитида иқтисодий таълим тизимининг такомиллашуви қонуниятлари. Иқт. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 91 б.
32. [http ://ш. wikipedia](http://sh.wikipedia).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

